

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
“MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA'LIMI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Alisher Navoiy falsafiy qarashlarida inson muammosi

Bajardi: Tarix fakulteti 4-kurs talabasi Isayev B.

Ilmiy rahbar : f.f.d., prof. N.Safarova

Navoiy-2015

MAVZU: ALISHER NAVOIY FALSAFIY QARASHLARIDA INSON MUAMMOSI

REJA

Kirish

I bob: Alisher Navoiyning hayot yo'li va ijodi

- 1.1. Alisher Navoiyning hayotiy faoliyat yo'li
- 1.2. Navoiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalarining bibliografik tahlili

II bob: Navoiy ijodida falsafiy qarashlar va inson talqini

- 2.1. Alisher Navoiy «Xamsa»sida inson masalasi
- 2.2. Navoiyning tasavvufiy qarashlarida komil inson talqini va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Inson muammosi azal-azaldan butun dunyo olimlari, mutafakkirlari qarashlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ular inson zotini yuksaklikka ko'targanlar, uni tirik mavjudotlar orasida eng a'lo deb hisoblaganlar. Insonga bo'lgan e'tibor kuchaydi, unga g'amxo'rlik qilish, uning manfaatlari to'g'risida qayg'urish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish davlatning ustuvor siyosatiga, kundalik faoliyatiga aylandi.

Moziyda yashab o'tgan mutafakkirlarning inson va uni yashashdan maqsadi, mukammal jamiyat, odil va ma'rifatli shoh, komil inson haqidagi qimmatli fikrlari hozirgacha o'z qadrini yo'qotmasdan, insoniyatga xizmat qilmoqda.

Buyuk mutafakkir, g'azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy o'zining nasriy va nazmiy asarlarida, o'lmas dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug'orilgan komil inson, mukammal jamoa va odil hukmdor haqidagi g'oyalarni ilgari surdi. Uning insonparvarlik, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, axloq va xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, yuksak insoniy qadriyatlar to'g'risidagi dono fikrlari keyingi davrlarda va hozir ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari kishilarda vatanparvarlik, o'zlikni anglash, odamiylik, halol va pok bo'lish, nafsni tiyish, sabr-bardoshli va yetuk inson bo'lib yetishish kabi fazilatlarni kasb qilishida, yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ekanligini chuqur anglab yetishida muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari hozirgi kunda turli terroristik chiqishlar, aqidaparastlik, diniy ekstremizm kabi vayronkor va buzg'unchi g'oyalar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari I.Karimov e'tirof etganidek, "...hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar

tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir"¹.

Hazrat Navoiy asarlaridagi komil inson g'oyasi va insonparvarlik qadriyatlari yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni tarbiyalashga, yoshlar ongini yuqorida nomlari keltirilgan zararli g'oyalar ta'siridan saqlashga yordam beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Bugungi kunda Alisher Navoiy merosiga bo'lgan munosabat yana ham kuchaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11 chaqiriq 1-sessiyasi 2-yig'ilishida Navoiyni yana ham kengroq o'rganishni, uning asarlarini xalqimizga sodda va tushunarli tarzda yetkazish zarurligini uqtirdilar. Haqiqatan ham, Navoiy shaxsiyati, asarlarining yoshlarimizni ma'naviy yetuk, har jihatdan mukammal qilib tarbiyalashdagi o'rni benihoyadir.

Navoiy umrini xalq va yurtga bag'ishladi. U shoir, adabiyotshunos, donishmand, tarixchi, tilshunos, o'zbek adabiy tiliga asos solgan, ilm-fan homiysi, donishmand-qisqasi ulkan san'atkor bo'lib, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, insonparvarlik to'g'risida ko'plab asarlar yozib qoldirdi. Navoiy ijodiga qiziqish, o'rganish o'z davridan boshlandi. Navoiy hayoti va ijodini o'rganishdagi birinchi manba uning o'z asarlaridir. Uning barcha asarlarida, ayniqsa «Munshaoot», «Vaqfiya», «Xamsat-ul-mutahayyirin», «Xutbai davovin», «Majolisun nafois», «Muhokamatul-lug'atayn» kabi asarlarida hayoti va faoliyatiga doir ko'p ma'lumotlar bor. Ularda Navoiyning shaxsiy hayoti, ijodiy faoliyati, ayrim asarlarining yozilish tarixi, obodonchilik borasidagi ishlari, do'stlari, dushmanlari bilan bo'lgan munosabatlari va boshqa masalalar bayon etilgan.

Navoiy faoliyati va merosini o'rganishda zamondoshlarining asarlari ham muhim o'rin tutadi. Xondamirning «Makorimul-axloq»², «Habibus-

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. Президент И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Ишонч, 2009 йил 6 декабр.

siyar» /«Suyukli xislatlar»/, «Xulosatul-axbor» /«Voqealarning xulosasi»/, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-Shuaro», Boburning «Boburnoma», Vosifiyning «Badoyiul-vaqoye»³ /«Go'zal voqealar»/ kitobi va boshqalar shular jumlasidandir.

Bulardan tashqari, Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Xiradnomai Iskandar», «Bahoriston» kabi asarlarida ham ma'lumotlar bor. Navoiy keyingi asrlarda yaratilgan ko'pgina tazkira va tarix kitoblari va memuarlardan ham o'rin olgan. Lutf Alibek Ozarning «Otashkada», Som Mirzoning «Tuhfai Somiy», Faxriy Hiraviyning «Latofatnoma», Mirzo Haydar Dug'latning «Tarixi Rashidiy» asarlari shular jumlasidandir.

Navoiy hayotini o'rganishda xalq og'zaki ijodining o'rni ham katta. Navoiy haqida o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar og'zaki ijodida ko'plab ertak, afsona, hikoyatlar yaratilgan. /Bu jihatdan M.Jo'rayev tomonidan tuzilgan «El desa Navoiyni...» kitobini eslash kifoyadir./

Navoiyning asarlari turli davrlarda xattotlar tomonidan hurmat bilan ko'chirildi. XIX asrning 70-yillarida O'zbekistonda bosmaxona paydo bo'lgandan keyin Navoiyning «Xamsa», «Chor devon», «Vaqfiya» va boshqa asarlari bir necha marta nashr etildi.

Yevropaliklar XVI asrlardan boshlaboq Navoiy asarlari bilan tanisha boshlagan bo'lsada, Navoiy ijodini o'rganish asosan XIX asrda boshlandi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan majmuasiga Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» va «Tarixi mulki Ajam»ni kiritdi.

Navoiy hayoti va ijodi, asarlari matnini o'rganishda I.Sulton, she'riyatini o'rganishda H.Sulaymon, Shayxzoda, tarjimai holini o'rganishda A.Qayumov⁴, Navoiy lirikasi, uslubi masalalari uning ijodi bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha A.Hayitmetov, «Xamsa» bo'yicha T.Jalolov, S.Hasanov, M.Afzalov, S.G'aniyeva, Navoiyning she'riyati, tili bo'yicha A.Rustamov,

² Xondamir. Makorimul-axloq. T., 1967. B.54

³ Zayniddin Vosifiy. Badoeul vaqoe'. T., 1979. B.23

⁴ Aziz Qayumov. «Ishq vodiysi chechaklari». Toshkent 1985 y.

Navoiyning poetikasi bo'yicha Yo.Ishoqov va boshqalarning tadqiqotlari yaratildi.

O'zbek navoiyshunoslari safida N.Mallayev⁵, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, B.Valixo'jayev, R.Vohidov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.Olim, N.Jumaxo'ja kabi yetuk olimlarimiz ham bor.

Tadqiqot maqsadi: Alisher Navoiy ijodi har bir davr uchun eng muhim ilmiy manba sifatida keng tadqiq etiladi. Mutafakkir asarlaridagi insonparvarlik tamoyilini falsafiy jihatdan tahlil qilib, uni o'rganish, qolaversa yoshlar ongida inson qadrini, uning barcha ezgu fazilatlarini, ma'nau boy bo'lib yetishish g'oyasini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan.

Tadqiqot vazifalari: Ilmiy ishning nazariy va amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish orqali uning inson to'g'risidagi falsafaiy g'oyalarini tahlil qilish;
- Navoiy merosining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Mutafakkir asarlaridagi falsafiy g'oyalar va ilmiy-nazariy bilimlarning o'rni va ahamiyatini belgilash.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Navoiy falsafiy qarashlaridagi inson muammosini o'rganish tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa Navoiy asarlarining falsafiy mohiyatini anglash va uning bugungi kundagi ahamiyatini aniqlash bilan belgilanadi.

Ishning ilmiy yangiligi: Ushbu ilmiy tadqiqotimizda Alisher Navoiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalarini bibliografik jihatdan tahlil qilib, xalqimizning yuksak ilmiy, ma'naviy merosida inson muammosini yanada keng ochib berishga erishishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: BMI da berilgan tahlillardan o'quv jarayoniga, falsafa, milliy g'oya, tarix, adabiyot,

⁵ N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T., 1963.

ma'naviyat kabi fanlarni o'qitishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

I BOB: NAVOIYNING HAYOT YO'LI VA IJODI

1.1. Alisher Navoiyning hayotiy faoliyat yo'li

Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi (ismi noma'lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447 yil 12 martda mamlakat podshohi Shohrux vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Urush-janjallar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur etdi. Alisher Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishdi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur «Zafarnoma» tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin taassurot qoldiradi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotga qolib o'qishni davom ettirdi. Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid — Kobuliy, Muhammad Ali — G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar.

Alisher Navoiy 10—12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh

matla'li g'azalini tinglab: «Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim...» degan. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

Alisher Navoiy 13—14 yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1456 yil oktabrda mamlakat poytaxti Hirotidan Mashhadga ko'chiriladi, Abulqosim yosh Alisherni ham, o'z xizmatida bo'lgan Husayn Boyqaroni ham Mashhadga olib ketadi. 1457 yilning bahorida to'satdan Abulqosim Bobur ham vafot etdi. Alisher Navoiy uchun bu, otasi vafotidan keyingi, ikkinchi og'ir judolik bo'ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o'qishini davom ettiradi. Do'sti Husayn Boyqaro esa Marv va Chorjo'y tomonlarga omad qidirib ketadi. Xurosonni temuriylarning yana bir vakili, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egalladi va poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi — Abu Sayd edi. Alisher Navoiy oilasining xohish-rag'batlari Husayn tomonida bo'lib, bu avvalo ularning oilaviy yaqinliklari bilan izohlanardi; bundan yangi hukmdor ham yaxshi xabardor edi. O'rtadagi bu vaziyat Alisher Navoiy hayotini murakkablashtirgan. Alisher Navoiy Mashhadda oddiy bir mullavachcha sifatida yashadi. Shoirning bu davrdagi ijodida o'z yurtini sog'inib yozgan g'azallari talaygina. Orada, xususan, yoz fasllarida Hirotga borib-kelib ham turgan. 1463 yilda esa u uzil-kesil Hirotga qaytdi. Biroq bu yerda ahvol o'zgargan, shahar xarobaga aylangan edi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahrdan kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiy ga yaqin kishilar quvg'in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog'alari — Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustozi Sayyid Hasan Ardasherda Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va

haqqoniy ifodalab berilgan. Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Sayd ta'qib qilib, Hirotidan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi.⁶ Alisher Navoiy Samarqandda 1465 yildan 1469 yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko'zga ko'ringan shoirlari — Shayxim Suhayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqa bilan hamsuhbat bo'ldi va do'stlashdi. Samarqand shahri hokimi Ahmad Hojibek asli hirotlik bo'lib, Vafoiy taxallusi bilan she'rlar yozardi, u Alisher Navoiyga alohida hurmat va e'tibor bilan qaradi. Uning yordamida Alisher Navoiy davlat ishlari bilan ham shug'ullana boshladi. U davlat ishlarini boshqarishda dastlabki tajribani shu yerda orttirdi va bu unga keyinchalik asqotdi. Alisher Navoiyning Samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyati yuqori baholanib, unga «Chig'atoy amiri» unvoni berilgan.

1469 yil boshlarida Sulton Abu Sayd Qorabog'da o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Ko'pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtini egallaydi. Alisher Navoiy ham Hirotga yetib keladi. 1469 yil 14 aprel kuni, ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Alisher Navoiy o'zining Husayn Boyqaroga yangi yozgan «Hiloliya» qasidasini taqdim etadi. Podshoh Alisher Navoiyni muhrdorlik mansabiga tayinlaydi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi — Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Shu voqealardan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, Husayn Boyqaro hukumatidagi muxrdorlik vazifasiga Alisher Navoiyning roziligi bilan uning samarqandlik do'sti, shoir Shayxim Suhayliy tayinlanadi. Alisher Navoiyning maqsadi saroyda maslahatchi bo'lib qolish, ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanish edi.

⁶ Sharafutdinov A. Alisher Navoiy. Toshkent, 1948, 37-bet

Biroq Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro podshohlik qilgan, Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagantshllarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi uringa chiqa boshladi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotida va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha Madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotidagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dorul-huffoz» binosi, Mar-vdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor.

Bu davrda Hirotida adabiy hayot jo'sh urgan. Alisher Navoiy atrofida Shayxim Suhayliy, Xoja Osafiy, Binoiy kabi o'nlab shoirlar, Hasan Noiy,

Xoja Abdullo Marvoriy, Qulmuhummad Udiy, Shohquli G'ijjakiy kabi o'nlab sozandalar, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Xoja Hofiz Muhammad, Sultonali Koiniy, Muhammad Xandon, Mavlono Hijroniy kabi mashhur kotiblar, Behzod kabi musavvirlar qizg'in ijodiy mehnat bilan band edilar. Hirotida, umuman Xuroson mul-kida ma'naviy hayotning baquvvat ustunlaridan Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik — ustoz-shogirdlik ko'p masalalarda hamfikrlilikka olib keldi. Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan «Hiloliya» qasidasi Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan bo'lsa, forsiy tildagi birinchi yirik asari «Tuhfat ul-afkor» (1476) qasidasi Jomiyga bag'ishlangan edi.

1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni — «Badoe' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tar-je'band, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan-kam o'zbek shoiriga nasib bo'lgan. Alisher Navoiy «Badoe' ul-bidoya» tuzilgandan keyingi davrda yozilgan o'zbekcha she'rlari asosida 1480 yillarning oxirida «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar») devonini tuzdi. 1841 — 82 yillarda Alisher Navoiy «Chixl hadis» («Qirq hadis» yoki «Arbain») asarini yozadi. Bunda Muhammad payg'ambar(sav) ning qirq hadisi to'rtlik bilan she'riy ifodalab berilgan.

Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she'riy janrlardan g'azal, qasida, ayniqsa muammo yozishga qiziqish kuchli edi. Alisher Navoiy forsiy devoniga 373 muammo kiritgan. Shunday adabiy mayllar tufayli 1485 yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus «Mufradot» asarini yaratdi.

Alisher Navoiyda o'zbek tilida «Xamsa» — besh doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483—85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi.

«Xamsa»dan keyin Navoiy yana bir qancha asarlar yaratdi. 1485 yil uzining mashhur «Nazm ul-javohir» asarini yozdi, bunda birinchi xalifalardan bo‘lmish Hazrat Alining 266 ta hik-matli gapi ruboyi tarona (to‘rt misrasi ham qofiyalangan) shaklida bayon etilgan. O‘sha Davr kitobxonlari, shu jumladan, tarixchi Xondamir bu asarni g‘oyat yuksak baholagan. Alisher Navoiyning insonparvarlik faoliyati, ilg‘or qarashlari, uning obro‘-e‘tibori xalq orasida tobora ortib borishi o‘z manfaatlarini ko‘zlagan saroy a‘yonlari orasida norozilik tug‘dirdi. Ular shoir bilan podsho orasiga nifoq solishga urindilar. Natijada 1487 yilda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni vazifasidan bo‘shatadi, bosh vazir vazifasini Muhammad Majdiddin egallaydi. Navoiy esa Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. Navoiy hokimlik qilgan 2 yil davomida Astrobod shahri va viloyati obodonlashib, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatiladi, savdo ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Alisher Navoiy Astrobodda ham ko‘p yangi she‘rlar yozgan, Hirotidagi yor-do‘stlariga maktublar yo‘llab turgan.⁷ Uning Astroboddan Husayn Boyqaroning katta o‘g‘li Badiuzzamonta yozgan maktubini davlatni boshqarish haqidagi risola, deyish mumkin.

Alisher Navoiy doim Husayn Boyqaroni adolatli va ma‘rifatli hukmdor qiyofasida ko‘rish orzusi bilan yashadi. Astroboddan Husayn Boyqaroga va boshqa amaldorlarga yozgan maktublarida ularni insof va adolatga chaqirar, davlat idora usulida mustahkam tartib o‘rnatish va ayrim islohotlar o‘tkazishga undar edi. Lekin Alisher Navoiyning istaklari to‘la amalga oshishi qiyin edi. Astrabodda Navoiy bilan Husayn Boyqaro munosabatlariga putur yetkazuvchi gaplar yuzaga kelgach, podshoh Alisher Navoiyning Hirotga qaytishiga ruxsat beradi. Husayn Boyqaro Navoiyga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qiladi. Alisher Navoiy rozi bo‘lmagach, unga «Muqarrabi hazrati sultoniyy» («Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan rasmiy unvon beriladi.⁸ Bu bilan u davlatning hamma ishlariga aralasha olar va

⁷ Рустамов Э. Страницы из биографии Алишера Навои //Краткие сообщения МНА, Выпуск 63. М., 1963. стр.80-86

⁸ Hayitmetov A. Navoiy dahosi. Toshkent. 1970, 62-bet

podshoh bilan ko‘rishish imkoniga ham ega bo‘lar edi. Binobarin, saroy amaldorlari, shu jumladan, Muhammad Majdiddin ham har bir muhim masalani ko‘p vaqt u bilan kelishishga majbur edi. Lekin Alisher Navoiy bilan Majdiddin o‘rtasidagi nodo‘stona munosabatdan ko‘pchilik xabardor edi. Navoiyning Balxda hokim bo‘lib turgan ukasi Darveshali Majdiddindan ranjib, bosh hukumatga qarshi isyon ko‘targani ham ma’lum. Bu isyon Navoiyning aralashuvi bilan tinchitilgan. Aynan shu voqea 1490 yildan Majdiddinning siyosat maydonidan ketishiga asosiy sabab bo‘lgan.

Alisher Navoiy hamisha ko‘proq ijodiy va ilmiy ishlar bilan shug‘ullanish, bu boradagi rejalarini amalga oshirish xayoli bilan yashardi. Hayot esa uning rejalariga o‘z tuzatishlarini kiritar edi. 1488 yil Sayyid Hasan Ardasher, 1492 yil Jomiy, 1493 yil olim va shoir Pahlavon Muhammad birin-ketin hayotdan ko‘z yumdilar. Navoiy o‘zi uchun qadrdon bo‘lgan bu insonlar xotirasini abadiylashtirish, ularga o‘z hurmatini izhor etish uchun «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat»), «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli risolalarini yozdi. Astrobodda yoza boshlagan «Tarixi muluki Ajam» («Ajam podshohlari tarixi») asarini tug‘alladi (1489). 1490 yil u o‘ziga zamondosh shoirlar haqida Jomiyning «Bahoriston», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asarlari shaklida «Majolis un-nafois» («Nafislar majmuasi») tazkirasini tuzishga kirishib, 1492 yilda tugalladi. Shu vaqtning o‘zida Alisher Navoiy o‘zbek tilida she’riyat nazariyasi, aniq-rog‘i, aruz vazni qoidalari haqida «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o‘lchovi») ilmiy qo‘llanmasini yaratdi. 1494 yilda turkiy tildagi maktublarini to‘plab «Munshaot» («Maktublar») majmuasini tuzdi. 1495 yil Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarini «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalari») nomi bilan tarjima qilib, uni qayta ishlab, turkiy mashoyixlar haqidagi yangi ma’lumotlar bilan boyitdi. Shu boisdan «Nasoyim ul-muhabbat»ga Alisher Navoiy ning mustaqil asari sifatida qarash mumkin.

Alisher Navoiy 1491—92 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she'rlaridan yangi, yig'ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498—99 yilda nihoyasiga yetdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini») bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun «Chor devon» deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she'rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiy ning barcha davrlaridagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan. Taxminan shu yillarda Alisher Navoiy forsiy she'rlaridan tashkil topgan «Devoni Foni» («Foni devoni»)ni, forsiy tildagi 2 qasidalar majmualarini tuzib, forsiy she'riyat taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Xurosonda forsiyzabon xalqlar ko'pchilikni tashkil etganligi inobatga olinsa, Alisher Navoiyning bu tilda ham samarali ijod qilgani mamlakat ma'naviy ehtiyojini yaxshi his etganligini bildiradi.

1490 yillarning o'rtalariga kelib mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tanglik kuchaya boshlaydi. Temuriylar xonadonida hukmdor o'g'illari o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar esa bu tanglikni yanada kuchaytiradi. Har bir shahzodaning o'z tarafdorlari bo'lib, ularni murosaga keltirish ko'p vaqt Alisher Navoiy zimmasiga tushar edi. Bosh vazir Nizomulmulk esa 1496—97 yillarda bu oilaviy mojarolarda bir tomonlama harakat qilib, Muzaffar Mirzonkt onasi — Xadicha begimga yon bosadi. Shu asosda Husayn Boyqaro bilan Astrobodda hokimlik qilayotgan Badiuzzamon o'rtasida harbiy to'qnashuv yuz berdi. Saroydagi fitna, jumladan, Nizomulmulkning qabihligi natijasida Badiuzzamonning o'g'li, Husayn Boyqaroning eng sevimli nabirasi, Navoiyning esa ixlos qo'ygan shogirdi Mo'min Mirzo fojiali o'ldiriladi. Bular hammasi Alisher Navoiy hayoti va kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.⁹

Alisher Navoiyning she'riy dahosi 15-asr oxirlariga kelib yana jo'shurdi. U 2 yil mobaynida 2 ta yirik asar — «Lison ut-tayr» («Qushlar tili») dostonini va «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») nomli ilmiy

⁹ Sulton I. Navoiyning qalb daftari. 1969, 210-bet

asarini yaratdi. Alisher Navoiyning so‘nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnoma yusnida yozilgan «Mahbubul-qulub» («Qalblar sevgani»)dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa‘diyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Aruzi Samarqandiyning «Chor maqola» kabi asarlari qatorida turadi. Bu asarida Alisher Navoiy o‘zining hayot yo‘lini, boshidan kechirgan turmush mashaqqatlarini yorqin tasvirlab bergan.

1500 yilning dekabrda Husayn Boyqaro isyon ko‘targan o‘g‘li — Muhammad Husayn bilan sulh tuzib, Hirotga qaytar ekan, Alisher Navoiyni ham uni kutib olishi lozimligiga ishorat qiladi. Orada 2—3 kunlik yo‘l bor edi. Alisher Navoiy o‘zining so‘nggi she‘rini Poyob rabotida yozgan va undan nusxa ko‘chirtirib, kelayotgan Husayn Boyqaroga yuborgan. Uchinchi kuni Alisher Navoiy hukmdor istiqboliga yaqinlashayotganida o‘zini yomon his etgan, u bilan ko‘rishayotganda hushidan ketib, qaytib o‘ziga kelmagan va hayotdan ko‘z yumgan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo‘lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she‘riy merosi. 4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o‘zbek tilida yaratgan she‘riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat. Devonning birinchi qismiga «G‘aroyib ussigar» («Bolalik g‘aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismiga «Badoe’ ul-vasat» («O‘rta yosh badialari») va nihoyat, to‘rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibor» («Keksalik foydalari») degan nomlar berildi. «Xazoyin ul-maoniy» inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq minglarcha she‘r va o‘nlarcha she‘r turlarini o‘z ichiga olgan majmua bo‘lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidangina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she‘rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo‘lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali boglangan.

Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» ga qadar «Ilk devon», «Badoe' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlarini tuzgan. «Xazoyin ul-maoniy» ana shu 3 devonga kirgan hamda «Navodir ul-nihoya» tuzilgandan keyin yozilgan she'rlar asosida yuzaga kelgan.

Alisher Navoiyda keksalik chog'larida barcha she'rlarini yig'ib, xronologik tartibda 4 devon tuzish g'oyasi bo'lgan. Biroq «Xazoyin ul-maoniy»ni tuzishda muharrirlik vazifasini bajargan Husayn Boyqaro bu g'oyani qo'llab-quvvatlamagan ko'rinadi. Uning «G'aroy-ib ussig'ar» devoni bolalik mashqlaridan, «Navodir ush-shabob» yigitlik she'rlaridangina iborat bo'lmay, bu boshlang'ich devonlarda shoirning keyingi davr she'riy mo'jizalaridan ham namunalar borki, Husayn Boyqaro shuni ma'qul ko'rgan. Shu sababdan «Xazoyin ul-maoniy» tarki-bidagi 4 devon nomining mazmunini shartli ma'noda tushunish, bunda she'rlar ko'p holda aralash holda joylashtirilganini nazardan qochirmaslik zarur.

«Xazoyin ul-maoniy»dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chistoy, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turi namoyondir.

Alisher Navoiyning muhabbat va bu bilan bog'liq tug'yonlari, xususan g'azallari uning yigitlik davrida yozilgan. Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko'zum», «Kelmadi» («Munojot») nomlari bilan mashhur bo'lgan va kuylanadigan g'azallari yaxshi misol bo'la oladi. Bu kabi she'rlarida shoir pok va yuksak ishqiy kechinmalarni baland ehtiros va falsafiylik bilan ifodalab bera olgan. Uning «Topmadim» radifli g'azali ham shu davrda, aniqrog'i, Mashhaddan Hirotga qaytib, shaxsiy turmushini izga solish taraddudida yurganda, lekin uning moddiy jihatdan nochor ahvoldaligi tufayli oila qurishi qiyinlashgan, Sulton Abu Sayd esa uni ta'qib qilgan paytda yozilgan bo'lib, uning har bayti yurakni tirnaydi. Alisher Navoiyning ishqiy she'rlarini faqat bir sub'ektga qaratilgan, deyish qiyin. U

hayotga keng nigoh bilan qarab, barcha go‘zalliklarni nazokatli tuyg‘ularni qadrlagan, noyob so‘z va iboralar bilan qalbdan ifodalay bilgan. Lekin hayot qiyinchiliklari va ziddiyatlari orqasida o‘z orzu-umidlariga yetisha olmagan shoir o‘zining insoniy norozilik tuyg‘ularini olovli she‘riy satrlarda bayon etadi. Alisher Navoiyning ishq bilan bog‘liq tasvirlari rang-barang va boy bo‘lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko‘p qirralarini — shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko‘ngilsizliklarni ham ko‘ramiz. Zotan o‘zbek she‘riyatida inson dardi va hasratlarini, o‘z sevgilisiga talpinishlarini Navoiydan o‘tkazib ifodalagan shoirni topish qiyin. Alisher Navoiy ning ishqiy mavzuda yozgan she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ulardagi ko‘p g‘oya va timsollar, tasviriylar detallar an‘anaviy xarakterga ega. Shu bilan birga ishq va ishqiy obrazlar talqinida ham boshqa mumtoz ijodkorlar kabi Alisher Navoiy ramziylikka ko‘p o‘rin beradi. «Yor» — bu dunyo go‘zaligina emas, uningcha, bu — butun borliqni yaratgan va hamma narsani harakatga keltirib turgan Alloh hamdir. Shoir o‘zining tasavvufiy she‘rlarida yorning qoshi, ko‘zi, zulfı, sochi (va h.k.) deganda Allohning kuch-qudrati, mehri, oliy darajadagi go‘zalliklarini ko‘zda tutadi. Alisher Navoiyning barcha lirik janrlarga oid she‘rlari yuksak mahorat bilan yozilgan bo‘lib, inson manfaatlariga, uning e‘tiqodini mustahkamlashga, ruhini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Uning falsafiy, axloqiy mazmundagi hayot nafasi ufurib turgan har bir she‘ri bu janrning o‘lmas namunalaridir (yana q. «Xazoyin ul-maoiiy»).

Ulug‘ shoir ijodining shoh asari «Xamsa» 5 dostonidan iborat. Bular «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati»), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab‘ayi sayyor» («Yetti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devo-ri») dostonlaridir. Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o‘zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan Alisher Navoiy «Xamsa»si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik 15-asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va

kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi. Shoir voqealarni qadim Sharq tarixining Xusrav, Bahrom, Iskandar kabi nomlari afsonalar bilan chulg'angan shaxslar, Layli va Majnun kabi oshiqlar hayotidan oldi. Ularga yangi mazmun berdi, turkona ruh kiritdi. Davrning dardli masalalarini, avlodlarning orzu va armonlarini ko'tarib chiqdi. «Xamsa» zamondoshlariga niho-yatda zo'r ta'sir ko'rsatdi. Abdurahmon Jomiy uni hayajon bilan olqishladi. Sulton Husayn esa shoirni o'zining oq otiga mindirib, jilovdorlik qildi (yana q. «Xamsa»).

«Lison ut-tayr» — Alisher Navoiyning so'nggi dostoni «Xamsa»dan 14 yil keyin — 1498—99 yilda yaratilgan. Bu asarini shoir «Foniy» taxallusi bilan yozgan. Chunki bu davrda uning hayoti keksalikka yuz o'g'irgan, aniqrog'i, bu dunyosidan ko'proq u dunyosini uylay boshlagan edi. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigani — Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qushlar tili») dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, «tarjima rasmi bila» yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. «Lison ut-tayr» aruzning ramali musaddasi maqsur (foilotun — foilotun — foilon) vaznida yozilgan bo'lib, 3598 baytdan iborat. Dostondagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalaridir. Alisher Navoiyning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og'ir sinovlardan o'tkazib, komil inson darajasida ko'rish. Shoir asarda qushlar timsolida tasavvuf yo'liga kirgan va Allohni ko'rishga, unga yetishishga astoydil kirishgan xudojo'y insonlarni tasvirlashga intilgan. Hudhud degan qush nomidan so'ylangan yuzlarcha hikoyalar tasavvufiy mazmunda bo'lib, ular hammasi hayotiy, biri biridan qiziqarli. Qushlarning rang-barang timsollari orqali Alisher Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarini, Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligini majoziy uslub bilan, ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlagan. Tasavvufning vaxdat ul-vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan.¹⁰ Bu bilan Navoiy tasavvuf

¹⁰ O'zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. 44-bet

gʻoyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy kurkam va jonli yetkazishda oliy darajada sanʼatkorlik koʻrsatgan (yana q. «Lison ut-tayr»).

Alisher Navoiy butun hayoti davomida oʻzbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi. Uning bu tildagi sheʼrlari 1490-yillarning oʻrtalarida, Eron olimi Yusuf Sheroziy taxminicha, 1495—1500 yillar orasida muallif tomonidan devon holiga keltirilgan va «Devoni Foni» nomi bilan mashhur. Mazkur devoni 1963 yilda Tehronda, 1965 yilda Toshkentda, 1993 yilda Dushanbada nashr etilgan. Oʻzbek olimi Sulaymonov tavsifi boʻyicha, «Devoni Foni»da, «Debocha»dan tashqari, 7 qasida, 554 gʻazal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qita, 73 ruboiy, 16 tarix, 373 muammo, 9 lugʻz bor. «Devoni Foni»dagi gʻazallarning aksariyati mashhur fors shoirlari sheʼrlariga tatabbulardan iborat. Jumladan Jomiyning 52, Hofiz Sheroziyning 237, Xisrav Dehlaviyning 33, Saʼdiy Sheroziyning 25, Mavlono Kotibiyning 5, Shohiy Sabzavoriyning 5, Kamol Xoʻjandiyning 4 va boshqa gʻazaliga tatabbu bogʻlangan. Alisher Navoiy fors tilida yozgan original gʻazallariga «Muxtara», «Ixtiro» deb sarlavha qoʻygan boʻlib, ularning soni 50 dan ortiq.

Alisher Navoiy oʻzining forsiy kasidalaridan alohida toʻplamlar ham tuzgan boʻlib, ularning biri «Sittai zaruriya» («Olti zarurat»), ikkinchisi «Fusuli arbaa» («Toʻrt fasl») deb ataladi. «Sittai zaruriya» toʻplamiga 6 qasida kiritilgan boʻlib, ularni Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidnavislar taʼsirida yaratgan. U davrlarda shoirning sheʼriy mahorati koʻp vaqt qasida yozish bilan belgilanganini hisobga olsak, Alisher Navoiyning ham qasidnavislik salohiyati yuqori boʻlgan. Alisher Navoiyning «Fasuli arbaa» toʻplamiga 4 qasidasi kiritilgan boʻlib, ulardan «Bahor» 57 baytdan, «Saraton» 71 baytdan, «Xazon» 33 baytdan, «Day» 70 baytdan iborat. Ularda yilning 4 fasli — bahor, yoz, kuz va qish, bu fasllardan har birining oʻziga xos goʻzalligi zavq bilan tasvirlangan va toʻrttalovi ham zamon podshohi — Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi dust va yaxshi inson sifatida vasf etishga bagʻishlangan. Umuman, Alisher Navoiy oʻzining forsiy tildagi asarlari bilan

zamondoshlarining, birinchi navbatda, Jomiyning yuqori tahsiniga sazovor bo'lgan va fors-tojik adabiyoti, xususan she'riyati rivojiga munosib hissasini qo'sha olgan.

Alisher Navoiy shoir bo'lish bilan birga o'z davrining ulug' olimi, mutafakkiri ham edi. Navoiysiz bu davr fani va madaniyati taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Alisher Navoiy ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarining katta qismi, tabiiyki, til va adabiyot masalalari bilan bog'langan. Shu ma'noda «Majolis un-nafois» tazkirasini yaratish bilan Alisher Navoiy o'z davri adabiyotiga, uning ijodkorlariga o'ziga xos haykal o'rnatdi. Unda o'zbek va forsiy tillarda ijod qilgan 359 shoirning hayoti va yozgan asarlari haqida noyob ma'lumotlar berilgan, bu ijodkorlarning yutuklari va kamchiliklari, o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan (yana q. «Majolis un-nafois»).

Alisher Navoiyning «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari «Majolis un-nafois»ning davomiday bo'lib, bu davr adabiyoti, fani va madaniyatining yirik namoyandalari hayotini o'rganishda eng qimmatli manbalardir. Bu asarlar badiiy-tasavvuf adabiyotining manoqib (yoki manqaba) janriga tegishli bo'lib, uslubining samimiyligi bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiyning katta adabiy va tarixiy ahamiyatga ega «Munshaot» asari uning turkiy tilda o'z zamondoshlari — podshohlar va shahzodalar, ilm va adabiyot axdlari bilan olib borgan yozishmalari majmuidan iborat, maktub janrining mukammal namunalari sanaladi. Maktublarning miqdori turli qo'lyozmalarda turlicha, bir-birini to'ldiradi. Alisher Navoiy o'zining forsiy maktublarini ham yig'ib, «Munshaot» tuzgan. Biroq u bizgacha yetib kelmagan.

Alisher Navoiyning eng muhim asarlaridan biri «Vaqfiya» bo'lib, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o'zi kurgan imoratlariga vaqfi, ya'ni rasmiy hujjatidek ko'rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, Alisher Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi o'rni, uning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va

aniqlik bilan yoritilgan. Shuning uchun ham navoiyshunoslikda bu asarga Alisher Navoiy nasrining ajoyib namunasi sifatida qaraladi. Muallif fikrlarining ba'zilarini she'r bilan, xususan ruboiy shaklida bayon qilishi uning qaysi masalaga qo'l urmasin, o'zini she'riyatdan hech uzoq turmaganini, doim she'riyat bilan nafas olganini namoyon etadi.

Alisher Navoiy hayotining oxirlarida «Mahbub ul-qulub» nasriy asarini yozdi. Asar 3 qismdan iborat. Uning birinchi qismi 40 fasl. Har bir faslida muallif uzi yashagan davrdagi bir tabaqa hayoti, axloqi va vazifalari haqida suhbat yuritadi. U ushbu tabaqa vakillarining yaxshi ishlari haqida ham, ayb va nuqsonlari haqida ham goh halimlik bilan, goh g'azab va nafrat bilan mulohaza yuritib, ularni insofga chaqirmoqchi, tarbiyalamoqchi bo'ladi. Asarda Alisher Navoiyning inson axloqiga va tarbiyasiga doir eng noyob pand va nasihatlar xalq maqollari va hikmatli so'zlari shaklida bayon qilingan. «Tarixi muluki Ajam» va «Tarixi anbiyo va hukamo» Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlab yozmoqchi bo'lgan asarining boshlang'ich bo'laklaridir.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da qadimgi Eron podshohlari, ularning tarixda muxrlanib qolgan ishlari va shaxsiyatlari to'g'risida hikoya qiladi. Bundagi ma'lumotlarni Navoiy ko'proq Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» dostonidan hamda «Tarixi Tabariy» kitobidan olgan. Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari esa islom dini tarixi bilan bog'liq rivoyatlar va adabiy asarlarni, xususan bir qator payg'ambarlar hayotini Buqrot (Gippokrat), Aflotun (Platon), Batlimus (Ptolemey) kabi donishmandlarni bilib olish uchun muhim manbadir. Ayni vaqtda Alisher Navoiyning bu asarlari falsafa tarixidan chuqur o'rin egallagan.

Alisher Navoiy asarlari o'nlab xalqlarning tillariga tarjima bo'lgan. Masalan, «Majolis un-nafois» 16-asrdayoq fors tiliga Faxriy bin Sulton Muhammad Amiriy, Muhammad Qazviniiy va Shohali Abduali Nishopuriy tomonidan 3 marta tarjima qilingan. Alisher Navoiyning boshqa tillarga tarjima qilingan dastlabki badiiy asari «Sab'ai sayyor» bo'ldi. Xristofor

Armaniyning 1557 yilda italyan tilida nashr etilgan «Sarandib shohi uch o'g'lonining ziyorati» asarida Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonidagi qoliplovchi hikoyasi — «Bahrom va Dilorom» hikoya qilinadi. Bu asar nemis, fransuz va golland tillariga tarjima qilinib, 11 marta nashr etilgan. Shuningdek, 17-asr Gruzin shoiri Sitsishvili Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonini erkin tarjima qilib, «Yetti go'zal» dostonini yaratdi. 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asari turk va tatar tillariga tarjima qilindi.

Alisher Navoiy vafot etganidan keyin o'tgan davr mobaynida uning asarlari forsiy va turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Atoqli tojik shoirlarining ko'pchiligi, Fuzuliy, Kishvariy, Mirzo Fatali Oxundov, Sobir kabi ozarbayjon yozuvchilari, Ozodiy, Mahtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq yozuvchisi Abay Qo'nonboev, qoralpoq sohibqalamlari Berdaq, Ajiniyoz, tatar shoirlari Abdulla To'qay, Hayum Nosiriy va boshqa Alisher Navoiyga yuksak baho berib, asarlaridan ta'lim oldilar, ayrim asarlariga nazira bitdilar.

1.2. Navoiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalarining bibliografik tahlili

Navoiy olam va odam mohiyati haqida ko'p bosh qotirgan, tiriklik va o'lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma'no-mazmuni xususida bir umr o'ylagan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran tafakkur va shoirona o'tkir nigoh bilan uyg'unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmatlarida mujassamlashib, butun dunyo xalqlari tomonidan e'rtirof etilmoqda.

Navoiy asarlarining mazmun-mohiyatini tezda anglab yetishning bir qator murakkabliklari bor. Ulardagi ayrim bayt, hikoyat, obraz yoki timsollarning asosiy ma'nosini to'g'ri tushunish chuqur tafakkur, keng qamrovli ilmni talab etadi. Shoir asarlarini teranroq his qilish uchun tariqat odobi, tasavvuf mohiyati, islom odob-axloqi, so'fiylar hayoti, shaxsiyati bilan bog'liq jihatlardan xabardor bo'lish kerak. Ayniqsa, Navoiyning «Nasoyimul-

muhabbat” asari bilan tanishish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki shoirning boshqa asarlarida ilgari surilgan g’oyalarni to’g’riroq talqin etishda bu asarlarning o’rni katta yoki “Xamsa”ga kirgan dostonlarda keltirilgan ibratli hikoyatlar ulardagi asosiy g’oyani yoritishga imkoniyat bergan. Jumladan, “Hayratul-abror”ning o’n uchinchi maqolatida haqiqiy insoniylik, “odamiylik odamiysi” qanday bo’lishi haqida mulohazalar bildirilgan. Shoirning ta’kidicha, “necha jafo yetsa, vafo aylagan”, azobu ozorlarga sabr bilan chidaydigan, hech kimga yomonlikni ravo ko’rmaydigan kishi “bashar ahlining insoni”dir.¹¹

Navoiy o’zining “Mahbub ul-qulub” asarida ham inson muammosiga to’xtalib, musiqaning ko’ngil holatlari ta’siriga asosiy e’tiborni qaratadi. Asarda dardu hol ahli, dard ahli, zaxmlik yurak, hol ahli, kuygan bag’ir, kongul mulki, suluk ahli kabi so’z va so’z birikmalariko’p takrorlangan, chunki insonning ichki musaffoligi, ruh pokligi ko’ngil olami bilan bog’liq. Ko’ngil – inson umrining mazmuni. Pokiza, beg’ubor qalb inson umriga harorat bag’ishlaydi, uning hayot yo’lini yoritadi, ezgulikka da’vat qiladi. Notob ko’ngil insonni manmanlik, xudbinlik illatiga duchor qiladi.

Navoiy e’tiqodiga ko’ra, mansabu martabaga ko’ngil bog’lamagan kishi oqil, oliyhimmatlik, mansabga bepisandlik, amal kursisidan o’z ixtiyori bilan voz kechish yoki mansab taklif qilinganda uni chin dildan rad eta olish esa saxovatlilikdir. Saxovat esa himmat ahlining kasbi va bu ulug’ sifat pokiza kishilargagina xos: “Himmat ahlig’adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat – valoyat xosi”.¹² Valoyat so’zi – valiylik, avliyolik, azizlik, xudoga yaqinlik ma’nolariga egaki, Alisher Navoiy nafsni pokiza tutish, qanoatli, mansabu amal hirsidan ozod, molu jon xayoli rishtasini ko’ngildan uzgan kishini valiylik maqomiga ko’tarib, madh qiladi. Bunday talqin bobokalonimizning qator nasriy asarlarida ham kuzatiladi.

¹¹ Tohir Rashid Xo’ja. Navoiyni ahglash yo’lida (Adabiyot o’qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar). Til va adabiyot ta’limi. 2002 yil №5. B.15

¹² Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. 14-jild. T.: Fan, 1998. B.80

Mutafakkirning “Mahbubul-qulub” asarida turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o’rni, vazifalari, o’z burchiga to’g’ri, halol munosabatda bo’lishi kerakligi haqida so’z yuritiladi. Asarning ushbu xususiyatlarini nazarda tutsak, uning bugungi kunda inson tarbiyasi uchun qay darajada qimmatli ekanligini ko’ramiz. Asarda, ayniqsa, taqsimot munosabatlariga, ularning adolatli tashkil etilishiga e’tibor qaratilgan, xususan, xizmatga yarasha taqdirlash masalasi shoirning diqqat markazida turgan. U yasovul misolida shunday deydi: “Agar u xizmatiga yarasha haq olish xayolida bo’lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir”¹³.

Bu yerda Navoiy ikkita iqtisodiy g’oyani ilgari suradi: birinchisi mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq taqdirlanish bo’lsa, ikkinchisi mehnatga yarasha haq olish, “ona sutidek halol” yashash g’oyasidir. Yoshlarga iqtisodiy tarbiya berish masalasi dolzarb bo’lgan bugungi kunda buyuk shoirning ushbu fikri katta ahamiyatga ega.

Navoiyning o’z asarlarida hunarning, hunarmand insonning xususiyatlari haqida bayon qiladi. U odamlarni hunarli bo’lishga, doimo tadbirkorlik va tejamkorlik bilan ish yuritishga undaydi.

Alisher Navoiygacha hech kim, hech qachon oddiy yaratuvchi odamlarni bu qadar samimiyat, chuqur hurmat va ehtirom, insonparvarlik ruhi bilan sharaflanmagan.

Alisher Navoiy asarlarida har tomonlama rivojlangan barkamol insonning qiyofasi, uning barkamolligi, orifligini ifodalovchi mezonlar, o’lchovlar haqida ham ajoyib fikr-mulohazalar yuritilgan. Uning yozishicha, barkamol insonning eng muhim fazilatlaridan biri – xalqparvarlik, vatanparvarlikdir. Yurt tashvishi bilan yashab, xalqqa ko’p foyda yetkazgan kishini chinakam xalqparvar odam deb hisoblaydi. Bunday fikr-mulohazalarni Navoiyning “Arba’in hadis” asarida yaqqol ko’rishimiz mumkin:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur,
Eshitib shubha ayla raf andin.

¹³ Alisher Navoiy. Mahbubul qulub. T.: G’ulom nashriyoti. 1983. B.21

Yashiroq bil ani ulus arokim,
Etsa ko'proq uluska naf andin.¹⁴

Barkamol insonga xos fazilatlar Alisher Navoiyning mashhur qahramoni Farhod obrazida ham ko'rish mumkin. Farhodning fe'l-atvori, yurish-turishida, faoliyatida, fozil insonga xos fazilatlarining barchasi jamuljam edi. Ayniqsa ilmu hunar o'rganishga chanqoqlik, halol mehnat qilish, axloqiy poklik Farhod shaxsini yanada ulug'laydi, shuning uchun ham el-yurt Farhodni e'zozlaydi.

Ba'zi tadqiqotchilar musulmon falsafasida "barkamol inson" iborasini, ilk bor tasavvuf falsafasining tadqiqotchilaridan biri Boyazid Bistomiy ishlatgan, deb xabar beradilar. Boyazid Bistomiy barkamol inson tushunchasini, Olloh ishqiy yo'lida ilohiy haqiqatga erishgan orif insonni "al inson al komil", deb atagan deya tushuntiradilar. Yana boshqa birovlar, barkamol inson tushunchasini birinchi bo'lib, Muhiyiddin Arabiy tadqiq qilgan, deb ta'kidlaydilar.¹⁵

Navoiy, shubhasiz, barkamol inson to'g'risidagi Boyazid Bistomiy, Muhiyiddin Arabiy, Aziziddin Nasafiy qarashlarini rad etmaydi, balki uni har tomonlama rivojlantiradi.

Mutafakkirning fikricha, barkamol insonning barcha fazilatlari, xislatlarining asosida imon yotadi. Imonlilik esa, eng avvalo, insonda namoyon bo'ladi. Insofli, diyonatli insonga xos xislatlardan biri erkinlikdir. Bunday kishi uchun erkin fikr yuritish, boshqacha aytganimizda, aql va ko'ngil ozodligi har qanday saltanat, toj-u taxtdan balandroqdir.

Alisher Navoiyning tushuntirishiga qaraganda, insonning axloqiy tubanlashuviga sabab bo'layotgan illatlardan biri - nafsni tiya bilmaslikdir. Inson tabiatda xudbinlikning vujudga kelishi ham nafsning kasofatidir. Faqat nafsni tiyish, sabr-qanoat – insonni har qanday kafolatlardan,

¹⁴ Алишер Навоий. Арбаъин ҳадис. Қирқ ҳадис. Тошкент, 1991, 5-бет

¹⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 8-том. Тошкент, 1991, 72-бет

axloqsizliklardan saqlab qoladi.¹⁶ Navoiy qarashlarida qanoat – insonning eng muhim axloqiy xislat sifatida har tomonlama ulug’lanadi.

Alisher Navoiy asarlarida foydalanilgan turli rivoyatlar, naqlar – zohiriy bir libos edi. Aslida insonning ruhiy-ma’naviy kamolotga yetish jarayonini kuylash – shoirning asosiy maqsadi edi. Navoiy tarannum etgan ishq-muhabbat tasavvufiy mazmunga ega bo’lib, insonning ongi va faoliyatida bo’ladigan sifatiiy o’zgarishlarni Olloh nuri chig’irig’ida ko’rish, ushbu jarayonni qalb ko’zi bilan mushohada qilishning ifodasidir. Farhod, SHirin, Layli, Majnunlar murakkab yo’lni bosib o’tib, haqiqatga yetib kelgan orif kishilar timsolidir.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida inson ko’ngli, el ko’ngli birikmasini xalq, el bahosi, nazari va bu baho, nazar har bir inson hayotida, ayniqsa, qalam ahli hayotida, ijodida muhim mezon, munosabat kabi tushunchalarda hamda adabiy tanqidchilikning bir ma’rifiy vositasi sifatida ham talqin qiladi.

Alisher Navoiy shoirning ijodiy va axloqiy qiyofasi bir-biri bilan uzviy bog’langan holda tushunadi. Shuning uchun u shoir ijodi xususiyatlarini belgilashga urinar ekan, uning axloqiy qiyofasini ham bir yo’la yoritib boradi. Shuning orqali Alisher Navoiy shoir ijodining qanday ekanini, nimaga qaratilganligini ko’rsatib, o’zining unga bo’lgan munosabatini ham ifoda etadi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"idan ma’lumki muallif kamtar, o’ziga talabchan, insonparvar, adolatli, chuqur mulohazali, xushmuomala, xushsuhbat, dono shoirlarning ijodini yuqori baholaydi, ularni yoqtiradi. Axloqan tuban shoirlar ijodining xususiyatini esa ularning axloqiy qiyofasiga bog’laydi, bundaylarga salbiy munosabatda bo’ladi.

Navoiyning shoirlar ijodiga baho berishidan o’sha davrdagi adabiy muhitda ikki adabiy yo’nalishning borligini, ularning bir-biriga qarshi kurash olib borganini aniqlash imkoniyati tug’iladi. "Majolis un-nafois"dagi

¹⁶ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. Тошкент, 1983, 78-бет

ma'lumotlarga tayanib, Navoiyning bu adabiy yo'nalishlarga munosabatini yoritish mumkin, Alisher Navoiy ijodi axloqiy qiyofasi kabi yuksak bo'lgan shoirlarni shuning uchun yoqtiradiki, ularning ijodi Navoiyning badiiy ijod oldiga qo'ygan ilg'or talablariga javob bera olardi. bu guruhga mansub yozuvchilar ijodida Navoiy hayotiy mavzularning kuylanganligini, badiiy jihatdan pishqlikni, mumtoz merosga hurmatni, badiiy shaklni boyita olganlikni va, nihoyat, ularda hayotiy lavhalarining tasvirini ko'rdi. Bunday yozuvchilarning falsafiy qarashlari o'zining falsafiy qarashlariga yaqinligini angladi. Shuning uchun Navoiy ularning ijodini ham, axloqiy qiyofasini ham ma'qullaydi.

Navoiy g'azallarini o'qiganda esa real insoniy kechinmalarning izhori, shikoyat va hasrat ohangining shiddat bilan oqib kelayotganligiga guvoh bo'lamiz va bu dastlab bizni ruhiy tushkunlikka sola boshlaydi.¹⁷ Biroq Navoiy so'zlarining qudrati shundaki, ularning zamirida vafo va sadoqat, ya'ni odamiylik xislatlarini tiklashga da'vat bor.

Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul fikricha, Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to'rt ustuvor asosga, ya'ni Axloq go'zalligi, qalb tasfiyasi¹⁸, Ruhiyat qudrati va tafakkur balog'atiga tayanadi¹⁹.

Mutafakkirning fikr yuritishicha, "aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o'zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zero, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to'la anglay olmaydi"²⁰. SHunga qaramasdan, Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug'ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi.

¹⁷ Комилов Нажмиддин. А.Навоий "Истадим" ғазали умумий маъно-мазмуни. Жаҳон адабиёти. 2012 йил 6-сон. 5-бет

¹⁸ Тасфия – софлаш, тозалаш, тиниқлаш.

¹⁹ Қаранг: Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеърлятида комил инсон мавзуи // Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. - Тошкент-Навоий: Фан, 2001.

²⁰ Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий ва гуманистик фикрлар тарихининг муҳим босқичлари. (Аликулов Х., Носиров Р., Шарипов А., ва б.). –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007. –Б. 196.

Alisher Navoiy kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatishga, solih amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag'allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli bo'lishga, doimo xalq g'amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da'vat qildi, odamiylikni har narsadan yuqori qo'yadi:

Manga ne yoru, ne oshiq havasdur,

Agar men odam o'lsam, ushbu basdur²¹.

Hazrat Navoiy saxiylikni insonparvarlik, komillikning muhim xislati deb biladi. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir. Saxiylik esa odamiylik, insonparvarlikning tarkibiy qismidir. Mutafakkirning ta'biri bilan aytganda:

Muruvvat borcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat borcha qilmoqdur, demak yo'q²².

Mutafakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o'zining g'azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"ga kirgan dostonlarida ham insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va boshqa dostonlaridagi Farhod, SHirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotun timsollarida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar, olijanob qadriyatlar jamlangan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos holda bayon qilinadi. Hazrat Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g'amida yashash, uning farovonligi, baxt-saodati yo'lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o'zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarni hamma narsadan

²¹ Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Т.8. –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 283.

²² Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. Асарлар. Т. 4. –Тошкент: Тошкент, 1965. – Б. 447.

yuqori qo'yadi. Mufakkir bu bilan insonni, uning xislatlarini ulug'laydi, uni boshqa jonzotlardan a'lo ekanligini ishonarli tarzda isbotlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, hazrat Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, nasriy va nazmiy asarlarining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan. Mufakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Uningcha, kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-esirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari yetaklaydi.

II bob: Navoiy ijodida falsafiy qarashlar va inson talqini

2.1. Alisher Navoiy «Xamsa»sida inson masalasi

Buyuk insonparvar shoir o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayotida haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi va buni o'z asarlarida ifodaladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, shoirning shaxsiy na'muna bo'lganligi o'z navbatida uning asarlaridagi insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hos talqinini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

“Xamca” dostoni Alisher Navoiyning shoh asaridir. Navoiy ona tilidagi adabiyotga mumtoz “Xamsa” an'anasini olib kirdi. Navoiy “Xamsa” si XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi bo'lib, unda o'sha davr turmushi, xalq hayoti, din va diyonat, odob va axloq haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan va o'z navbatida boshqa “Xamsa” lardan farq qilgan alohida xususiyatlar asosida bo'lgan insoniylik va boshqa ezgulik g'oyalarining talqiniga ega.

Navoiy "Xamsa"si ajdodlarimiz ma'naviy holatining ko'zgusi bo'lib, unda o'tmish davri ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Mundarijaviy doston bo'lmish "Hayratul-abror"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo'ysa, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi. “Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar dostonlar voqeligiga shunchaki an'anaviy kirish qismi bo'lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o'taydi. SHu ma'noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi. Aynan muqaddimada buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi

buyuk salohiyati u qo'llagan badiiy timsollar, tashbehu tamsillar vositasida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Jami 54 ming misradan iborat Navoiy "Xamsa" si 1483-1485 yillarda yozilgan bo'lib, quyidagi 5 ta dostonidan iborat:

"Xayrat ul – abror", "Layli va Majnun", "Farxod va SHirin", "Cab' ai Sayyor", "Caddi Ickandariy".

Agar Navoiy "Xamsa" sida jamlangan dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan bo'lsak, uning markazida, shubhasiz, inson, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konsepsiyasi, adlu insof, sahoovat va muhabbat haqidagi fikr-o'ylari, ezgulikka payvasta buyuk tafakkur olami yotadi.

Navoiy ijodida eng asosiy insonparvarlik va ezgulik g'oyalarining o'ziga hoslik tomoni shundaki, o'zi yashagan davrgacha faoliyat yuritgan barcha mutafakkir va ijodkorlardan farqli ravishda ilohiylik va dunyoviylik tamoyilini uyg'unlashib ketganligidadir. Ilohiy g'oyalar, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo'lsa, dunyo shu ideal olamning ko'zgusi, ibrat va saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati aks etgan. Ayniqsa, bu boradagi qarashlar "Xayrat ul – abror" dostonini asosini tashkil etadi. "Neki olami kubroda bor-olami sug'roda bor", deydi Navoiy ushbu dostonida. Olami kubro- katta olam, ya'ni koinot, borliq. Olami sug'ro-kichik olam, ya'ni inson. Bunday qarash aslida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Odam Ato, Qur'oni karimda aytilishicha, tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o'z ruhini yuborib, jon ato etadi. Demak, inson modda va ruh yoki yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. SHu bois inson tiynatining o'zida majoz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik mujassam. Bu olam yagonaligi haqidagi vahdat ul- vujud ta'limotiga muvofiqdir.

Yani:

“O’z vujudungg’a tafakkur aylagil,
Har ne istarsan, o’zungdin istagil”²³.

SHunga ko’ra, inson avvalo o’zini, keyin Alloh yaratgan jamiki ilmu hikmat, ma’rifat-ma’naviyatini bilib, o’z Xoliqini tanib, musaffo ruh holida qayta vahdoniyatga qo’shilmog’i darkor. SHu yo’lda inson ahloqi poklanadi va u komillik darajasiga ko’tariladi.

Alisher Navoiy soxta dindorlik, dindan o’z shaxsiy manfaatlari yo’lida foydalanish, botiniy olamga qaramay, zohiriy rasm –rusumlarni bajarish bilan kerilish, riyokorlik, shavqatsizlikni qoralaydi. Inson avvalo yaxshi axloqi, niyatining (himmatining) ulug’vorligi, ilohiyligi bilan inson. Agar bunday bo’lmasa, ya’ni kishi qalbida ezgulikka, xayrga muhabbat bo’lmasa, uning imoniga ishonish qiyin. Imon botiniy olamning tozaligi va butunligi, haqqa yaqinligini namoyon etib turishi kerak. SHu zaminda Navoiyning butun ijodi aqidaparastlik, diniy sxolastika va jaholatni rad etadi. Aynan ushbu mulohazalar boshqa hech bir mutafakkir ijodida uchramagan. Dinning faqat ezgulik yo’lida hizmat qilishi lozimligini alohida ta’kidlagan va shunga chaqirgan. SHuning barobarida, bu masala g’oyaviy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan eng muhim jihatlardan biridir.

SHuni aytish o’rinliki, hazrat Navoiy "Xayrat ul – abror" dostonida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma’rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e’zozlash, ta’lim-tarbiya to’g’risidagi g’oyalardan unumli foydalandi. Bu g’oyalar mutafakkirning boshqa g’azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga ham singib ketgan. I.Haqqul ta’kidlaganidek, “Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta’limotdan ko’zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas’ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish

²³Навоий Алишер. ХАМСА/Алишер Навоий; қискартириб нашрга тайёрловчи А. Ҳожирахмедов; масъул муҳаррир В.Раҳмонов. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2010. – Б.17.

emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi"²⁴.

Mutafakkirning umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan gumanistik qarashlari islom falsafasidan oziqlangan bo'lib, alloma o'zining asarlarida uning diniy va dunyoviy jihatlari, zohiriy va botiniy tomonlarini har tomonlama rivojlantirgan.

Allomaning inson va insonparvarlik to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilishdan avval, uning Xudo va tabiatga munosabatiga to'xtalish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Uning fikricha, Xudo hamma mavjudotning ibtidosi, boshlang'ichini tashkil etadi. Dunyodagi hamma narsa o'tkinchi, vaqtinchalikdir, Xudo esa abadiy, nimaiki borliqda sodir bo'lsa, uning irodasi bilan amalga oshadi. Mutafakkirning fikr yuritishicha, "aql yordamida inson hamma narsalarning siru asrorini, dunyodagi o'zgarishlarni, ularning mohiyatini chuqur idrok qilolmaydi. Bunga aql ojizlik qiladi. Zeroki, inson bilimi, aqli chegaralangan. U haqiqatni to'la anglay olmaydi"²⁵. SHunga qaramasdan, Navoiy insonni aqlsiz tasavvur qilmaydi. Inson qanday ish bilan shug'ullanmasin aqlga, tafakkurga, uning kuchiga ishonishi kerak, degan fikr mutafakkir asarlarining muhim jihatini tashkil qiladi.

Alisher Navoiy "Farxod va SHirin" dostonida kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatishga, solih amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag'allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli bo'lishga, doimo xalq g'amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da'vat qildi, odamiylikni har narsadan yuqori qo'yadi:

"Manga ne yoru, ne oshiq havasdur,

Agar men odam o'lsam, ushbu basdur"²⁶.

Mutafakkirning yana bir muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o'zining g'azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid

²⁴ Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. –Т.: "Фан", 2007. –Б. 27.

²⁵ Ўзбекистонда ижтимоий-ахлоқий ва гуманистик фикрлар тарихининг муҳим боскичлари. (Аликулов Х., Носиров Р., Шарипов А., ва б.). –Т.: "Фалсафа ва ҳуқуқ", 2007. –Б. 196.

²⁶ Алишер Навоий. Ҳикматлар/А.Навоий: Нашрга тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов.–Т.: "Ўзбекистон",2011. – Б. 232.

qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"ga kirgan dostonlarining har birida insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va boshqa dostonlaridagi Farhod, SHirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflotun timsollarida vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar, olijanob qadriyatlar jamlangan. Bu obrazlar allomaning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik qarashlariga mos holda bayon qilinadi. Hazrat Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g'amida yashash, uning farovonligi, baxt-saodati yo'lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o'zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarni hamma narsadan yuqori qo'yadi. Mutafakkir bu bilan insonni, uning xislatlarini ulug'laydi, uni boshqa jonzotlardan a'lo ekanligini ishonarli tarzda isbotlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, hazrat Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, "Xamsa" sining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan. Mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Ushbu dostonida kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-esirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari, ezgulikka yetaklaydi.

2.2. Navoiyning tasavvufiy qarashlarida komil inson talqini va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati

Tasavvuf – sabr-qanoat, zahmat, riyozat bilan poklangan ruh va vujudni olloh ishqiga bag'ishlab, yurakni mosivodan butunlay xalos aylab, faqru-fano zavq-shavqi bilan yashash dema. Tasavvufning tub asosida inson zotiga marhamat, muhabbat va xizmat yotadi. Tasavvuf ahli har qadam, har nafasda insonni jo'n, sayoz tushunchalarni botindan supurib tashlash, ruhni nafs tanballigidan, makr, riyo, kibr va har turli maydakashliklardan qutqazish chora-tadbirlarini ko'rsatadi. SHarqning ko'p buyuk sho'ir adiblari tasavvufiy ma'no va haqiqatlarning badiiy talqinlarini yaratish orqali butun bashariyatga xizmat qilishni ko'zlaganlar. Xususan, A.Navoiy ham rasman naqshbandiya tariqatiga kirgan bo'lsa-da, hayotda ham, ijodda ham tasavvufning ilm va irfon jihatiga tayangan. Ulug' shoir axloq tarbiyasida alohida natijalarni qo'lga kiritish, tafakkurni mahdudlik, qoloqlik, yovuzlik iskanjalaridan ozod qilish, ruh va ko'ngil sir-asrorini kashf etishda haqiqiy ishq va ma'rifatdan shu qadar mohirlik bilan foydalanganki, uning har bir baytida insoniyat manfaatlari yoqlangan.

“Ulug' shoir o'zi haqida, “men”i to'g'risida gapirar ekan, umuman insoniyat haqida gapiradi, negaki uning tabiatida insoniyatga xos hamma narsa mavjud”²⁷– deydi V.T.Belinskiy.

Hazrat Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma'rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e'zozlash, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan unumli foydalandi. Bu g'oyalar mutafakkirning g'azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga singib ketgan. I.Haqqul ta'kidlaganidek, “Navoiyning tasavvufga yondashuvi va bu ta'limotdan ko'zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas'ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish

²⁷ Белинский В.Г. Адабий орзулар. Тошкент, 1977. 136-бет

emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko'zlagan mutafakkir san'atkorning yondashuv va maqsadi edi"²⁸.

Insonni kamolotga yetaklovchi fazilatlarini nihoyatda qadrlagan va o'z asarlari bilan targ'ib va tashviq qilishdan charchamagan ulug' Navoiy har tomonlama kamolotga intilgan yoshlarning, shogirdlarining harakatidan cheksiz quvongan. Ularning hayotda, ijodda yaxshilikka olib boruvchi fazilatlarini, intilishlarini o'z asarlarida birma-bir sanab, urg'u berib, zamondoshlariga va kelajak avlodga ibrat uchun yozib qoldirgan.

Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qish-o'qitish, o'rganish, ustoz-murabbiylar mehnati, haqi, shogirdlar, ota-onalar, ma'rifat, ma'naviyat haqidagi ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, badiiy fikrlari, umuminsoniy g'oyalar mujassamlashgan.

SHoir asarlarida insoniyatning yuksak ideallarini kuyladi, nafaqat kuyladi, balki o'z ideallari uchun kurashdi ham.

Alisher Navoiy imonni insonlikning bosh belgisi deya ta'kidlaydi. U iymon deganda taqlidiy emas, haqiqiy imonni nazarda tutadi. SHoir riyokorlik, soxtakorlik va ikkiyuzlamachiliklar bilan aslo kelisholmaydi. Bunga "shayx" radifli g'azali va "Mahbub ul qulub"dagi "riyokor shayxlar haqida"gi qarashlarini misol qilish mumkin.

Ibn Arabiy "Futuzot"da yozishicha, hamdning haqiqati ham "muqaddas va munazzah bir qul bo'lishidir".²⁹ SHu qullik bandalik sharofati tufayli insonning o'zini ruhan yangidan anglaydi, tasavvur va taxayyulidagi mavhumlik, murakkabliklardan oson voz kechadi. Navoiy esa komillikni haqqa bandalik bilan uyg'unlashtirib, uni kamolotning nihoyasi degan xulosani ilgari suradi. Navoiy nazmiy va nasriy asarlaridagi murojaatlarida, ayniqsa, "Munojot" asarida Tangrining komil sifatlarini ta'riflash barobarida o'zining ojiizligini, unga bo'lgan ehtiyojlarini izhor qiladi. SHarq she'riyatida

²⁸ Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. –Тошкент: Фан, 2007. –Б. 27.

²⁹ Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеҳриятида ҳақ ва шахс муносабати. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013 йил 5-сон, 22-бет

aynan mana shu “ojizlik izhori” an’anaviy bayon usullaridan bo’lib, komil insonga xos bo’lmish fazilatlardan sanalgan.

Navoiyning ilohiy ishq, faqru fano va sof irfoniy tushunchalar yoritilgan g’azallaridagi qosh, ko’z, lab, xol kabi o’nlab poetik obrazlar Olloh va komil inson o’rtasidagi aloqa hamda birlik holatlaridan qayta-qayta xabar yetkazib turadiki, fahm-farosati o’tkir kitobxon mohiyatan o’zining ma’shuqil azaldan ajrata olmasligiga dildan iqrор bo’ladi. Navoiy fikricha, inson qancha buyuk bo’lsa, uning hayotga munosabati ham, shuncha teran va zalvorli, qalbi shuncha nozik va najib tuyg’ularga boy bo’ladi. U o’ziga o’xshagan yuksak didli, qaynoq qalbli, ma’naviy olami boy, dengizday behudud va gulday nozik, navoday dilrabo dili bor insonlarni qo’msaydi. SHoir “yor” deganda ana shunday buyuk, komil insonlarni nazarda tutgan.

Komil inson “bir tomondan, jami ruhiy-ma’naviy qudrat, aqlu zakovat, yaxshi sifatlarining jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan shu cho’qqiga intilib muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan”³⁰.

Alisher Navoiy komil inson to’g’risida butun bir ta’limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g’azallari, “Xamsa”ga kirgan dostonlari, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Lison ut-tayr” va boshqalarda komil inson qanday bo’lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta’limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo’lgan muhabbat belgilaydi. U payg’ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so’fiylar to’g’risida so’z yuritganda, g’azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul fikricha, Navoiyning komillik haqidagi

³⁰ Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Movarounnahr-O’zbekiston, 2009. –Б. 138.

qarashlari to'rt ustuvor asosga, ya'ni Axloq go'zalligi, qalb tasfiyasi³¹, Ruhiyat qudrati va tafakkur balog'atiga tayanadi³².

Mutafakkir payg'ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo'shadi. Bunday zotlar doimo xalq g'amida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko'rsatib, beva-bechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng a'losi bo'lib, butun umr poklanish va Haq yo'lini ixtiyor qilgan kishilardir.

Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" kitobida Muhammaddan oldin yashab o'tgan payg'ambarlarga maxsus to'xtaladi. Nabiylarning birini ikkinchisidan yuqori qo'ymay, ularning faoliyatini xolisona yoritadi. Payg'ambarlarning hayoti, turmush tarzi, qilgan xayrli ishlari, fuqarolarga munosabati, tinch va osoyishta yashashi uchun sa'y-harakatlarini ta'riflab, ularni komil insonlar deb hisoblaydi. Lekin shuni qayd qilish lozimki, Navoiy o'tmishdagi barcha musulmon SHarqi mutafakkirlari, ulug' donishmandlari singari Muhammad Payg'ambarni boshqa o'tgan payg'ambarlar ichida eng a'losi, komillarning komili, mukammal inson sifatida talqin qiladi. SHuning uchun ham, uning ko'plab asarlarida, xususan, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Munojot", "Lison ut-tayr", "Siroju-l-muslimiyn", "Nasoyimul-muhabbat", "Nazmul-javohir" va boshqalarda payg'ambarning fazilatlarini madh qilingan joylar ko'p. Ulug' mutafakkir Muhammad payg'ambar haqida shunday deydi: "Va chun ul hazrat anbiyoning xotami erdi va andin so'ngra nubuvvat eshigi bog'landi, har oyinakim noqislar takmilig'a ummatining komil va olimlarini ma'mur ettiki, burung'i anbiyo o'rnig'a ahdo qilg'aylar va yo'ldin chiqq'onlarg'a yo'l ko'rguzgaylar..."³³.

Mutafakkir nabiylar, ya'ni payg'ambarlardan so'ng valiylarni komil insonlar deb talqin qilgan. Alloma avliyolar amal qiladigan tavba, halol rizq bilan oziqlanish, tariqat odobini saqlash, kamtarlik, muloyimlik, saxiylik,

³¹ Tasfiya – soflash, tozalash, tiniqlash.

³² Қаранг: Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеърлятида комил инсон мавзуи // Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. - Тошкент-Навоий: Фан, 2001.

³³ Алишер Навоий. Насойимул-муҳаббат. МАТ. Т. 17. –Тошкент: Фан, 2001. –Б. 14.

sabrlilik singari xislatlarga to'xtab o'tadi, xususan, u halol luqma deganda, valiyning biror kasb bilan mashg'ul bo'lib, o'z mehnati bilan kun ko'rishini tushunadi. Darhaqiqat, tasavvufning yirik vakillari, valiyalar muayyan bir kasb-hunar bilan shug'ullanganliklari tarixdan ma'lum. Navoiyning zikr qilishicha, mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo'z, SHayx Muhammad Sakkok pichoqchi, SHayx Abu Hafz Haddod temirchi, SHayx Abulabbos Omiliy qassob, SHayx Abulhasan muzayin, SHayx Banon hammol, Bahovuddin Naqshband esa matolarga naqsh soluvchi bo'lganlar³⁴.

Ulug' mutafakkirning "Farhod va SHirin", «Layli va Majnun» dostonida ham tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o'rin egallaydi. Dostonda Farhod va SHirin, Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya'ni SHirin, Laylilar siymosida Allohga bo'lgan ishq bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Unda zohiriyliksiz ilohiy ishqqa, dunyoviyliksiz Haqqa yetishib bo'lmasligi to'g'risida fikr yotadi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, birinchidan, Navoiy nazarida komil inson xayoliy bir timsol emas, balki o'zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarni mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan, Navoiy uchun Muhammad Payg'ambar boshqa nabiylarga nisbatan yuksak darajada kamolga yetgan ulug' zot. Uchinchidan, axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o'zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, ya'ni javonmardlik oqimining ta'siri seziladi. To'rtinchidan, sho'rolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikki yoshning bir-biriga muhabbati faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson g'oyasini tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yoritish zarur masalalardan biridir.

³⁴ Ўша асар. –Б. 15.

Alisher Navoiyning komil inson g'oyasi davlatni boshqarishda, uning tasavvuridagi ideal, mukammal jamiyat to'g'risidagi qarashlarida, odil shoh haqidagi fikr-o'ylarida, hukmdorning raiyatga munosabatida, diniy-huquqiy qoidalarga rioya qilishida o'z in'ikosini topadi.

Alloma "Xamsa"ga kirgan dostonlarida, ayniqsa, "Saddi Iskandariy", "Sab'ai Sayyor", "Farhod va SHirin"da insonlarni baxt-saodatga eltuvchi, mamlakatni ravnaq toptiruvchi, xalqi farovon yashovchi, jabr-zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, haqsizlikdan xoli bo'lgan mukammal jamiyat va adolatli, har tomonlama komil podshoh timsolini tasvirlaydi.

Ulug' mutafakkir odil podshohni komil insonlar sirasiga kiritar ekan, agar u adl yo'lidan borsa mamlakat obod bo'lishini, xalqning turmushi yaxshilanishini, farovonlik, mo'l-ko'lchilik bo'lishini ta'kidlaydi. "Ochlar ovqati muruvvat va baxshishi dasturxonidan, yalang'ochlar kiyimi marhamat va ehsoni xazinasidan. Mamlakat bog'ini obod qilishga yomg'ir bulutiday serob va mamlakat ahli ko'zini yoritishga xuddi oftob. O'zga mamlakatning aholisi va xalqi uni orzu qiladilar va boshqa o'lka mazlumlari uning adolati to'g'risida so'z yuritadilar. YAxshi otiga atab olimlar risolalar tuzadilar va yaxshi sifatlari haqida shoirlar qasidalar yozadilar, cholg'uchilar uni deb kuylaydilar va bastakorlar unga atab kuy yaratadilar..."³⁵, – deydi alloma adolatli podshoh xususida.

Alisher Navoiy do'sti sulton Husayn Boyqaroda ham asarlarida tasvirlangan adolatli, xalqparvar, oqil podshohni ko'rishni istaydi. Doimo uni ezgu ishlarga, xalq dardi bilan yashashga undaydi. Masalan, Navoiy Husayn Boyqaroga "Hech vaqt ko'ngulni tengri taolo yodidin g'ofil va musulmonlar dodidin otil"³⁶ qilmang. Do'stlar fikridin va dushmanlar makridin beparvolig' joyiz ermas, va bu ish nadomatdin o'zga natija bermas"³⁷, – deb nasihat qiladi, saltanat ishlarini boshqarishda adolatli, xalqparvar, insonparvar bo'lishga chaqiradi.

³⁵ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. МАТ. Т. 14. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 13.

³⁶ Отил – ўзини четга тортган.

³⁷ Алишер Навоий. Муншаот. МАТ. Т. 14. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 156.

O'rta asrlarda podshoh Xudoning yerdagi xalifasi, degan fikr ustuvorlik qilar edi. Unga ko'ra, podshoh adolat ramzi hisoblanib, uni yer yuzi aholisiga tatbiq qilishi, o'z faoliyatida faqat adolat qonun-qoidalarini bo'yicha ish tutishi, undan chetga chiqmasligi lozim. Ushbu masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan ingliz islomshunos olimi E.Rozentalning "Musulmon mamlakatlarda davlat boshlig'ining faoliyatiga 2 xil nuqtai nazardan baho berish odat bo'lgan. Bular, ilohiy-huquqiy va tarixiy-siyosiy jihatlardir. Qolaversa, davlat boshliqlari har qanday sharoitda ham musulmon ekanligini yodda tutib, shariat qonun-qoidalariga asosan mukammal islom davlatchiligining ustuvorligiga ishonishgan"³⁸, - degan e'tirofi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Hazrat Navoiy ham o'z asarlarida podshoh xalqning yer yuzidagi posboni, Allohning yerdagi vakili, degan fikrga qo'shiladi. Alloma "Mahbub ul-qulub" asarida bu haqda - "Adolatli podshoh haqdan xaloyiqqa ko'rsatilgan marhamatdir, mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababidir. Quyosh bilan bahor yomg'iridek qora tuproqdan gullar ochar va mamlakat kishilari boshiga oltin bilan durlar sochar"³⁹, - deydi.

Hazrat Navoiy zolim, johil va fosiq podshohlarning kirdikorlarini ochib tashlaydi: "Adolatli podshoh, - deb ta'kidlaydi shoir, - ko'zgu va bu uning teskarisidir. U yorug' tong, bu uning qorong'i kechasidir. Zulm uning ko'ngliga yoqimli va fisq uning xotiriga sevimli. Mamlakat buzuqligidan yuragida birikish, xalq parishonligidan xotirida tinchish. Obod joylar uning zulmidan vayrona, kabutar uyalari boyqushga oshyona. May seli uning bazmida oshib-toshganidan mamlakat obodonliklarini vayrona qilgan"⁴⁰.

Mutafakkir "Lison ut-tayr" asarida yana bir holatga e'tibor beradi, shunday shaxslar bo'ladiki, nuqsone bo'laturib, komillikka da'vogarlik qiladilar, o'zlarini komil inson ekanliklari to'g'risida lof uradilar. Navoiyning fikricha, o'zini yetuk va nuqsonsiz deb hisoblaganlar hech qachon komil bo'lolmaydilar:

³⁸ Rosenthal E. Some aspects of islamic political thought // Islamic culture. -An English Quarterly, 1948, january. - P. 6.

³⁹ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. МАТ. Т. 14. -Тошкент: Фан, 1998. -Б. 12.

⁴⁰ Ўша асар. -Б. 14.

Noqis uldurkim o'zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.
O'z kamolidin demas ahli kamol,
Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.
Senki nuqson ichra komilsan base,
Olim oytib o'zni, johilsan base.
Kim o'zin komil ko'rar noqisdur ul,
Nuqs bermaydur kamoli sori yo'l⁴¹.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchidan, hazrat Navoiy mukammal jamoa, odil podshoh va komil inson tushunchalarining o'zaro uyg'unligini asarlari orqali targ'ib qildi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy kuchli markazlashgan davlatni, mukammal jamiyatni tasvirladi, bunday davlat tuzumini orzu qildi. Faqatgina orzu qilib qolmasdan, o'zining rejalarini hayotga tatbiq qilmoqchi bo'ldi. Uchinchidan, mutafakkir komil insonni keng ma'noda tushunib, insonning komilligi yoki noqisligini baholashda axloq va xulq-odob qoidalarini asosiy mezon sifatida e'tirof etdi. To'rtinchidan, Navoiy o'z idealidagi mukammal davlat va odil shohning xayoliy obrazini "Hayratul-abror", "Farhod va SHirin", "Sab'ai Cayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarida yaratibgina qolmasdan, o'sha davrdagi hukmdorlarni to'g'ri yo'lga solishga, hayotda adolatli va komil bo'lishga chaqirdi.

⁴¹ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. Т. 12. –Тошкент: Фан, 1996. –Б. 199.

XULOSA

Mutafakkir asarlaridagi inson muammosini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jamiyatimiz yoshlarini barkamol avlod qilib yetishtirishda, uning mazmun-mohiyatini idrok qilishda Alisher Navoiyning inson haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Alisher Navoiy asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, alloma komil inson deganda vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, bag'rikenglik, javonmardlik, mehnatsevarlik, shirinsuxanlik, vafodorlik, sabrlilik kabi insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan odil, dono, mard, fidoiy, oliyhimmat insonni tushungan.

3. Mutafakkir asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik fazilatlari uning komil inson g'oyasiga milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi nuqtai nazaridan yondashganligini bildiradi. Prezident I.Karimovning ta'kidlashicha, "Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelgan. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy-ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga aylanadi"⁴².

4. Alisher Navoiy insonlarning xatti-harakati, qilgan ishlari, podshohlarning faoliyatini yaxshilik, adolat, burch, vijdon, or-nomus, baxt tushunchalari orqali baholadi. Bu, Navoiy talqinida komil insonni baholovchi eng umumiy tushunchalar sifatida qaraladi. Bulardan tashqari, o'rta asrlarda, shu jumladan, Navoiy zamonida donolik, iffat (nafsni tiyish), shijoatkorlik insonlarning komilligini belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. Navoiyning fikricha, komil insonning aksi noqis inson hisoblanadi. Ularni

⁴² Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 47- 48.

baholashda Navoiy adolatsizlik, yomonlik, johillik, vijdonsizlik, oriyatsizlik, qo'rqqoqlik, nafsini tiya olmaslik kabi tushunchalarni qo'llaydi. SHunday qilib, ulug' mutafakkir o'z asarlarida komil inson g'oyasini ham dunyoviylik, ham diniy-tasavvufiy nuqtai-nazardan tahlil qilganiga ishonch hosil qilamiz.

5. Komil inson g'oyasi o'rta asrlarda nafaqat ta'lim - tarbiyada, kishilarni kamolot sari yetaklashda, balki mamlakatlar taraqqiyoti va xalqlar ma'naviyatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' allomaning komil inson g'oyasi bayon qilingan boqiy asarlari keyingi davrlarda Movarounnahr va Xuroson xalqini insonparvarlashtirishda, ularning turmush tarzi va ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda katta xizmat qilib keldi.

6. Alisher Navoiy asarlari, o'lmas dostonlari, g'azal va ruboiylarida komil insonga oid qarashlarni, qimmatli g'oyalarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, insoniylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi. Ushbu holatlar Alisher Navoiyning komil inson g'oyasiga amaliy jihatdan yondashganligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda, butun musulmon SHarqi mamlakatlari xalqi, ayniqsa, turkiy va forsiy xalqlar orasida uning nomi mashhur bo'lib, asarlari sevib o'qilmoqda. Prezidentimiz I.Karimov haqli ravishda aytganlaridek, "... olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir"⁴³. Darhaqiqat, buyuk shoirning komil inson to'g'risidagi o'lmas g'oyalari, dono fikrlari jamiyatimizning yuksalishida, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim asos bo'lmoqda.

⁴³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 47.

7. Komil inson g'oyasi milliy mafkuramizning ustuvor g'oyasi va tamoyili bo'lib, u mustabid tuzum mafkurasidan xalos bo'lishda, milliy g'oyani takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishi xulosalaridan kelib chiqqan holda quyidagi **tavsiyalarni** keltirish mumkin:

1. Alisher Navoiy asarlarining tili murakkabligini, yoshlarga tushuntirishda qiyinchiliklar tug'dirishini hisobga olib, ularga izohli-ommabop lug'atlar, sharhlar bitish lozim.

2. Alisher Navoiyning "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun" asarlari asosida sahna asarlari, kinofilmlar tasvirga olingan, boshqa dostonlari asosida ham kinofilmlar suratga olinsa Navoiyni o'rganish, tushunish yanada osonlashar edi.

3. Talaba-yoshlar ongiga milliy g'oya va uning ildizlarini singdirish maqsadida Alisher Navoiyning komil inson tarbiyasi to'g'risidagi g'oyalari bo'yicha Oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslar tashkil qilinsa, uslubiy qo'llanmalar yaratilsa, ayni muddao bo'lur edi.

Tavsiya etilayotgan vazifalarning amalga oshirilishi boy ma'naviy-tarixiy merosimizning ilg'or g'oyalarini mukammalroq o'rganishga, ona tilimizning, xalqimizning obro'sini jahon miqyosida yanada oshishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.Rasmiy hujjatlar, manbalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.

Karimov asarlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2014
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. Toshkent 1997 yil, 29 avgust
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 yil, 29 avgust
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori.-"Xalq so'zi". 2006 yil, 26 avgust.
5. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: Ma'naviyat,2008.
6. Karimov I.A.Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.—T.: SHarq, 1997.
7. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.—T.: O'zbekiston, 1999.
8. Karimov I.A.Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. .—T.: O'zbekiston, 2009.
9. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari oliy qadriyat.XIV-jild.- T.:“O'zbekiston” , 2006
10. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir.XV-jild.- T.:“O'zbekiston” , 2007
11. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida.XVI-jild.- T.:“O'zbekiston” , 2008
12. Karimov. I.A. Vatanimizning bosqichma - bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. XVII-jild.- T.:“O'zbekiston”,2009

13.II.Monografiya, risolava o'kuv ko'llanmalari:

- 14.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.:“Fan”, 2002
- 15.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. Nasoyim ul-muhabbat. T.: “Fan”, 2002
- 16.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 18-tom. Devoni Foniyy. T.: “Fan”, 2002
- 17.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 19-tom. Devoni Foniyy. (davomi). T.: “Fan”, 2002
- 18.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20-tom. Devoni Foniyy.(davomi). Qasidalar, Mufradot, Ilovalar. T.: “Fan”, 2002
19. Alisher Navoiy hayoti va ijodi (Al'bom). – T. 2010.
20. Badriyev F., Xudoyberdiyev A. Alisher Navoiyning “Farhod va SHirin” dostoni haqida// Til va adabiyot ta'limi. 2011, 8-son.
21. Erkinov S. SHarq adabiyotida Farhod qissasi. – T.: Fan, 1985.
22. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi.–T.: O'qituvchi, 1976.
23. Qayumov A. Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti). –T.: Kamalak,1991.
24. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi.–T. 1993.
25. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar.I jild. – T . 2002.
26. Faniyeva S. Alisher Navoiyning prozaik asarlari. – T.: O'zbekiston,1981.
- 27.Navoiyning ijod olami. T., 2001.
- 28.A.Navoiy. 20 tomlik.7-11-tomlar.T.1990-93.
- 29.T.Jalolov. “Xamsa” talqinlari.T.1968.
- 30.N.Mallayev. A.Navoiy va xalq ijodiyoti.T.1974
- 31.N.Komilov.Tasavvuf. T.1996.
- 32.Navoiyga armug'on. 3-4 kitob. T.2003.

33. Inog'omova D. Natal Mallayev ijodida "Xamsa" tasnifi. Til va adabiyot ta'limi. 2009 yil 2-son, 45-bet
34. Hayitov SH. Kaykovus va Alisher Navoiy talqinida qalb tarbiyasi. . Til va adabiyot ta'limi. 2005 yil 2-son, 84-bet
35. Muxammadjon Maxmud. Navoiy lirikasidagi yor talqini va tahlili. . Til va adabiyot ta'limi. 2003 yil 6-son, 83-bet
36. Hayitov SH. Jomiy va Navoiy ezgulik haqida. Til va adabiyot ta'limi. 2003 yil 5-son, 50-bet
37. Toshmurodova Q., Kamolova N. Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub" asari va iqtisodiy tarbiya. Til va adabiyot ta'limi. 2003 yil 1-son, 11-bet
38. Tohir Rashid Xo'ja. Navoiyni anglash yo'lida. Til va adabiyot ta'limi. 2002 yil 5-son, 15-bet
39. Ma'rupova M. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari. Til va adabiyot ta'limi. 2012 yil 3-son, 42-bet
40. Ibrohim Haqqul. "Gar quyosh vaslin tilarsen...". Til va adabiyot ta'limi. 2013 yil 2-son, 39-bet
41. Ochilov E. "Dahr zoli nechakim farhodkushdur...". Tafakkur. 2009 yil 2-son, 70-bet
42. Navoiy, Alisher. G'azallar: SHarhlar.T.: Kamalak, 1991
43. Navoi, Alisher. Sobraniye sochineniy v X tomax: Vozlyublennyy serdets, Sujdeniye o dvux yazykax.-T.: Fan, 1970
44. Navoi, Alisher. Poemy. -M.: Xudojestvennaya literatura, 1972. il. (Biblioteka vsemirnoy literatury: Seriya pervaya. T. 26)
45. Navoi, Alisher. Layli va Majnun.-T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976
46. Navoi, Alisher. Layli va Majnun.-T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
47. Gumanizm Alishera Navoi.-T.: O'zbekiston, 1991.-223 s.

48. Navoiy, Alisher. Xamsa: Hayratul-Abror, Farhod va SHirin, Layli va Majnun, Sab'ai sayyor, Saddi Iskandariy.--T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.-423 b.
49. Navoiy, Alisher. Hikmatlar: Bolalar uchun.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999
50. Sharafutdinov A. Alisher Navoiy. Toshkent, 1948.
51. Sharipov va boshqalar. So'z mulkinging sultoni. T.: "Ma'naviyat" 2001
52. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. 1-kitob. T.: "Fan", 2007
53. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. 2-kitob. T.: "Fan", 2011
54. Hayitmetov A. Navoiy dahosi. Toshkent, 1970
55. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. Toshkent, 1969
56. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-jild

Internet saytlari:

57. www.ziyonet.uz
58. www.gov.uz
59. www.manaviyat.uz.pak.uz
60. www.uzbekkino.uz
61. www.fikr.uz
62. www.mfa.uz.
63. www.turkistonsarkor.uz
64. www.infoxs.uz.